



YOSHLAR – ZAMONAVIY TA’LIM VA SHARQONA TARBIYA
HAMDA ILMIY MUHIT DRAYVERI

Abduraimova Hulkaroy Muzaffar qizi

Alfraganus Universiteti Pedagogika fakulteti

Psixologiya yo‘nalishi 2-kurs

E-mail: @hulkarabduraimova05@gmail.com

Tel: +998887200232

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning zamonaviy ta’lim tizimidagi mavqeい hamda ularning sharqona tarbiya tamoyillariga sodiq qolgan holda intellektual yetuklikka erishish jarayoni tahlil etiladi. Unda yangi avlodni ilm-fan va texnologik taraqqiyot talablari asosida tarbiyalash, ularning ilmiy sohadagi faolligini kuchaytirish va milliy qadriyatlar ruhida shakllantirishning dolzARB masalalari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada ta’lim va tarbiya uyg‘unligini ta’minlash orqali yoshlarni zamonaviy jamiyatning yetakchi qatlamiga aylantirish omillari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy ta’lim, sharqona tarbiya, intellektual rivojlanish, ilmiy faoliyat, milliy qadriyatlar, innovatsion fikrlash, ijtimoiy faollik, ilm-fan va texnologiya, ta’lim va tarbiya uyg‘unligi, yoshlar yetakchiligi.

Аннотация: В данной статье анализируется положение молодежи в современной системе образования и процесс достижения интеллектуальной зрелости, оставаясь верными восточным принципам воспитания. В ней раскрыты актуальные вопросы воспитания нового поколения на основе требований науки и технологического прогресса, усиления их активности в научной сфере и формирования в духе национальных ценностей. Также в статье рассматриваются факторы превращения молодежи в ведущий слой современного общества путем обеспечения гармонии образования и воспитания.



Ключевые слова: Современное образование, восточное воспитание, интеллектуальное развитие, научная деятельность, национальные ценности, инновационное мышление, социальная активность, наука и технологии, гармония образования и воспитания, молодежное лидерство.

Abstract: This article analyzes the position of young people in the modern education system and the process of achieving intellectual maturity while remaining faithful to the principles of Eastern upbringing. It reveals topical issues of educating the new generation based on the requirements of scientific and technological progress, strengthening their activity in the scientific sphere, and forming them in the spirit of national values. The article also examines the factors of transforming young people into a leading stratum of modern society by ensuring the harmony of education and upbringing.

Keywords: Modern education, Eastern upbringing, intellectual development, scientific activity, national values, innovative thinking, social activity, science and technology, harmony of education and upbringing, youth leadership.

Hozirgi zamonaviy davrda biz yashab turgan dunyo tez sur'atlar bilan rivoj topmoqda. Axborot texnologiyalari, sun'iy ong va globallashuv jarayonlari hayotimizning barcha jahbalariga chuqur singib bormoqda. Bunday sharoitda yoshlar jamiyat rivojlanishining bosh harakatlantiruvchi kuchiga, zamonaviy ta'lif va ilm – fan taraqqiyotining yetakchi omiliga aylanishmoqda. Shu bilan bir qatorda, ular o'z milliy urf-odatlari va Sharqona tarboyaviy qadriyatlari asosida kamol topib, jamiyatdagi o'z o'rnini mustahkam belgilab olmoqda. Tarbiya va ta'lif bir-biridan mustaqil holda qaralishi mumkin emas, bu ikki jarayon faqat o'zaro uzviy va uzluksiz ravishda amalga oshirilgandagina odobli, axloqiy jihatdan yetuk, yuksak ma'naviyatga ega, bilimli, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va mustahkam tafakkur sohibi, zamonaviy kasb va hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni voyaga yetkazish imkonini beradi. Hozirgi vaqtida O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy qadriyatlar va zamonaviy talablarga mos holda ilmiy-texnologik jihatdan yangilash yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, yosh



avlod tarbiyasini zamon ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, ijobjiy fazilatlar va ishonchli psixologik qonuniyatlarga tayanib shakllantirishni zarurat sifatida taqoza etmoqda. Har qanday ijtimoiy tuzumda yosh avlodni tarbiyalash aniq maqsadga asoslangan holda amalga oshiriladi. Tarbiya maqsadi esa jamiyatning taraqqiyoti va rivojlanish yo‘nalishi, shuningdek, mavjud ijtimoiy munosabatlarning mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Hozirgi kunda yurtimizda shakllantirilayotgan tarbiya tizimining bosh maqsadi – komil insonni voyaga yetkazishdan iborat. Tarbiya jarayoning asosiy natijasi – har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish. Bu jarayon ikki yo‘nalishda kechadi: bir tomonдан tashkiliy faoliyat va rahbarlik, boshqa tomondan esa, o‘quvchining shaxsiy faolligini namoyon etishini talab etadi. Ushbu jarayonda pedagog muhim va bosh yetakchi rolni bajaradi. Zero, u ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsad-mohiyatini chuqur anglaydi, bu maqsad sari intilishda bajariladigan vazifalar tizimini yaxshi biladi, tarbiya shakllari, usullari va metodlarini ilmiy asosda puxta tanlaydi. Shu bilan birgalikda, ularni tarbiya amaliyotiga samarali joriy etadi.

Zamonaviy ta’lim – yoshlarni yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish omildir. Hozirgi davr ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar va raqamli vositalardan foydalanish yoshlarning bilim va malakalarini zamon talablariga mos tarzda shakllantirishga ko‘mak berib kelmoqda. STEAM yo‘nalishidagi dasturlar, kreativ va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar yosh avlodni global raqobat muhitiga tayyorlamoqda. Ta’lim jarayonida esa faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki yoshlarni jamiyatda faol, tashabbuskor va ilg‘or dunyoqarashga ega shaxs sifatida shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Bugungi kunda biz shunday jadal va o‘zgaruvchan zamonda yashayapmizki, agar yoshlarimizga gumanitar fanlarni o‘z vaqtida o‘rgatmasak, bu bo‘shliqni ertaga turli boshqa ma’lumotlar egallab olish ehtimoli bor. Hozirgi yosh avlod – kelajakning egasi sifatida qaraladi. Ularning salohiyati va raqobatbardosh bo‘lishlari uchun xorijiy tillarni chuqur o‘zlashtirishlari lozim. Hozirgi shiddatli rivojlanish davrida yoshlarning noto‘g‘ri yo‘lni tanlashlari uchun ularga psixologiya, madaniyatshunoslik, huquqshunoslik,



tarix, sotsiologiya, siyosatshunoslik, tilshunoslik, iqtisodiyot, arxeologiya va antropologiya kabi gumanitar fanlar bo'yicha yetarli bilim, ko'nikmalarini berish zarur.

Intellektual rivojlanish – fikrlash qobiliyati va aqliy faoliyatni yuqori darajada tashkil etishni talab qiladi, bu esa bilim olishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ushbu davrda turli to'garaklar, studiyalar, bo'limlar va tadbirlar tashkil etish muhim ahamiyatga ega. O'smirlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishi oshadi. O'zini anglash, o'zini baholash va tarbiyalash jarayonlari shakllanadi. Ular o'zlarini boshqalar bilan taqqoslab, o'z xarakterini rivojlantira boshlaydilar. Biroq, yuqoridagilar bilan birga, o'smirlar xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham yuzaga keladi. Bu o'smir faoliyatining yangi bosqichi bo'lib, yosh xususiyatlarning yangidan boshlanishini anglatadi. Lekin o'smirlarning barchasida bilim olishga bo'lgan qiziqish darjasini bir xil emas. 38% o'smir hech qanday o'quv faniga qiziqmaydi. Boshqa o'smirlar faqat uch yoki ikkita o'quv faniga, ko'pincha esa bitta o'quv faniga qiziqish bildiradi. Kichik yoshdagi o'smirlarning qiziqishi asosan o'qitish jarayoniga bog'liq bo'ladi. Shunga qaramay, ularning qiziqishlari va kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqi barqaror bo'lmasligi mumkin.

Sharqona tarbiya – ma'naviy va axloqiy qadriyatlarning poydevoridir. Sharq xalqlari azaldan ma'naviylik va odob-axloq masalalariga katta ahamiyat berib kelgan. Hozirgi yosh avlod ana shu boy tarixiy meros – kattalarga ehtirom, vatanparvarlik, mehr-oqibat, sabr-bardoshlik kabi qadriyatlarni asosida voyaga yetmoqda. Sharqona tarbiya yoshlarni shaxsiy manfaatlardan ko'ra jamiyat manfaati ustunligini tan olishga, yurt va xalq oldidagi burchini his qilishga o'rgatadi. Bu esa zamonaviy rivojlanish jarayonlarida ularga mustahkam axloqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Tarbiya insoniyat jamiyatini vujudga kelishi bilan boshlangan va asta-sekin rivojlanib kelmoqda. Bola dunyoga kelishi bilan ota-onaning g'amxo'rliги orqali atrof-muhitni idrok eta boshlaydi. Hayot faoliyati davomida esa, u moddiy, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarni egallab boradi, bu jarayonda uning intellektual va jismoniy yetukligi, madaniyati, odob-axloqi va estetik dunyoqarashi shakllanadi. Asrlar davomida shakllanib kelgan xalq qadriyatlari na'munalarida hamda



mutafakkirlarning asarlarida har bir jamiyatda yashovchi xalq ruhiyatining ifodasi – do'stlik, birodarlik, jasorat, vatan va xalqqa sadoqat g'oyalari o'z ifodasini topgan va ulug'langan. Ota-onalarning totuvligi, ularning farzandlari bilan mehr-oqibatli munosabatlari, insoniy fazilatlarning eng oliylari madh etilgan. Xitoyda sharqona tarbiya Konfutsiy g'oyalariiga tayangan holda shakllangan bo'lib, bolalarga hurmat, itoat, ruhiy boylik va kattalarga nisbatan ehtirom ko'rsatishni o'rgatadi. Bu tarbiya farzandlarni oilaviy aloqalarning ahamiyattini tushunishga, kattalarning tajribasidan saboq olishga va oila mustahkamligini saqlash uchun javobgarlikni zimmasiga olishga da'vat etadi. Hindistonda esa sharqona tarbiya ota-onaga sadoqat, mehnatsevarlik, axloqiy poklik va milliy qadriyatlarni asrashga alohida urg'u beradi. Hind oilasida sharqona tarbiya diniy va axloqiy tamoyillar bilan uyg'un holda odob-axloq, sabr-toqat va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan.

Amaliyotda qo'llash uchun ba'zi bir tavsiyalar:

1. Sharqona tarbiyani yosh avlod ongiga singdirish maqsadida ta'lim muassasalarida maxsus dasturlar va tadbirlar mashg'ulotlarni tashkil etish.
2. Ota-onalar uchun farzand tarbiyasi va ular bilan samarali muloqot o'rnatish bo'yicha seminar-treninglar o'tkazish.
3. Madaniy va diniy qadriyatlarni targ'ib etuvchi badiiy va ma'rifiy asarlarni keng ommaga yetkazish.
4. Sharqona tarbiya tamoyillarini keng targ'ib qilish uchun ommaviy axborot vositalarida maxsus ko'rsatuvlar va ijtimoiy roliklar tayyorlash.
5. Yoshlar o'rtasida axloqiy va ma'naviy mazmundagi kechalar, forumlar va turli tadbirlar uyushtirib, ularning milliy va madaniy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini mustahkamlash.

Yoshlar ilmiy muhit yetakchilaridir. Bugungi kunda yoshlar nafaqat tayyor bilimlarni egallovchi, balki yangilik va kashfiyat yaratuvchi asosiy kuchga aylanmoqda. Ularning ilmiy tadqiqotlarga, Start up tashabbuslariga va innovatsion g'oyalarga bo'lgan qiziqishi kundan kunga ortib bormoqda. Yosh tadqiqotchilar va olimlar milliy hamda xalqaro darajada salmoqli yutuqlarga erishib, mamlakat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shmoqda. Davlat tomonidan yoshlarning ilmiy



faoliyatini rag‘batlantirish, grantlar va stipendiyalar orqali ularni qo‘llab – quvvatlash bu jarayonni yanada tezlashtirmoqda. Xususan, “Yoshlar akademiyasi”, “Yosh olimlar kengashi” kabi tashabbuslar orqali ilmiy faoliyatga kirishayotgan yosh avlodning intellektual salohiyati rivojlantirilmoqda. Shuningdek, yoshlarning ilmiy sohada faol ishtirok etishi ularning shaxsiy kamoloti va kasbiy yetukligiga ham katta hissa qo‘shadi. Tadqiqot faoliyati orqali ular mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, muammolarni zamonaviy usullarda hal qilish va global raqobat maydonida o‘z o‘rnini topish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Bu jarayon esa, o‘z navbatida, nafaqat shaxsiy yutuqlarga erishish, balki mamlakatning izchil taraqqiyoti uchun ham mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlar – zamonaviy ta’lim, sharqona tarbiya va ilmiy rivojlanishning asosiy tayanchidir. Ularni har tomonlama rag‘batlantirish, bilim va tarbiya uygunligini ta’minlash hamda ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish – kelajak taraqqiyotining mustahkam asosi hisoblanadi. Bugungi yosh avlod ertangi kunning peshqadam vakillari sifatida zamon talablari va milliy qadriyatlarni uyg‘un holda mujassam etib, Vatan ravnaqi yo‘lida fidokorona mehnat qilmoqda. Yoshlarimizga ta’lim va tarbiya berish jarayonida milliy tarbiya alohida o‘rin tutadi, chunki aynan shu tamoyil bolalarimizni ma’naviy va ruhiy jihatdan sog‘lom, milliy an’analarimizga chuqur hurmat bilan qaraydigan yetuk shaxslar sifatida voyaga yetkazishning mustahkam poydevidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo‘rayev N. Sharq tarbiyasi va zamonaviy ta’lim uyg‘unligi. — T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2022. — B. 48–62.
2. “Yoshlar siyosati: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar” (ilmiy maqolalar to‘plami). — T.: Innovatsiya, 2024. — B. 75–88.
3. Xamidov A. Yoshlarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish: muammo va yechimlar. — T.: Fan va texnologiya, 2023. — B. 90–103.
4. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. — Paris: UNESCO Publishing, 2017. — P. 22–37.



5. Абдуллаева М. Шарқ мафкураси ва ёшлар тарбияси. — Т.: Истеъдод, 2021.
— Б. 40–54.
6. Назаров Б. Ilmiy tadqiqot asoslari va innovatsion faoliyat. — Т.: Tafakkur bo‘stoni, 2022. — В. 60–75.